

information). Riyadh, 2024. <https://www.nusuk.sa> (<https://www.nusuk.sa/>)

8. Republic of Türkiye Ministry of Culture and Tourism. Tourism Statistics. Ankara, 2024. <https://www.ktb.gov.tr> (<https://www.ktb.gov.tr/>)

Feruza AKBAROVA, talaba,
Ilmiy rahbar: O‘ktam JIYANOV,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasida dotsenti v.b.

ELEKTRON ISHTIROK INDEKSI (EPI) NI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI VA UNDA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Elektron ishtirok indeksi (E-Participation Index – EPI) ning mazmuni, baholash mexanizmi va uning elektron hukumat tizimidagi o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonning 2016-2024-yillar oralig‘idagi EPI ko‘rsatkichlari dinamikasi o‘rganilib, undagi o‘zgarishlar sabablari izohlangan, rivojlantirish borasida amalga oshirilgan davlat dasturlari hamda mavjud muammolar o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Elektron ishtirok indeksi, elektron hukumat, elektron ishtirok, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, ochiq ma‘lumotlar portali, Prezidenti Virtual qabulxonasi.

Аннотация. В данной статье проанализированы сущность, механизм оценки и роль Индекса электронного участия (E-Participation Index – EPI) в системе электронного правительства. Также исследована динамика показателей EPI Республики Узбекистан за период 2016–2024 годов, раскрыты причины произошедших изменений, рассмотрены государственные программы, реализованные в целях развития электронного участия, а также существующие проблемы и перспективы дальнейшего совершенствования данной сферы.

Ключевые слова: Организация Объединённых Наций, Индекс электронного участия, электронное правительство, электронное участие, Единый портал интерактивных государственных услуг, портал открытых данных, Виртуальная приёмная Президента.

Abstract. This article analyzes the essence, assessment mechanism, and role of the E-Participation Index (EPI) within the e-government system. Furthermore, it examines the dynamics of Uzbekistan’s EPI indicators during the period 2016–2024, explains the reasons behind the observed changes, reviews the government programs implemented to promote e-participation, and identifies existing challenges and prospects for further development in this area.

Keywords: United Nations, E-Participation Index, e-government, e-participation, Unified Interactive Public Services Portal, Open Data Portal, President’s Virtual Reception Office.

Texnologiyalar asrida raqamlashib borayotgan muhit an’anaviy ishtirok tushunchalari o‘zgarib, elektron ishtirokka ehtiyoj ortib bormoqda. Shu jihatdan Elektron ishtirok indeksi (E-Participation Index – EPI) butun dunyo bo‘ylab elektron ishtirok sohasidagi rivojlanishni baholashda muhim ma‘lumot manbaiga aylandi [6]. 2003-yildan buyon Birlashgan Millatlar Tashkiloti butun dunyo bo‘ylab elektron ishtirok tashabbuslarini baholaydigan birinchi ko‘rsatkich – Elektron ishtirok indeksini qo‘llab kelmoqda [3]. Ushbu indeks BMT ning Elektron hukumat tadqiqoti

(E-Government Survey) ga qo‘shimcha indeks sifatida kiritilgan [1].

Shu jumladan O‘zbekistonda haam raqamlashtirish sohasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. 2020-yil 5-oktabrdan boshlab barcha tarmoq va sohalarda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etishni ko‘zlagan, o‘n yillik maqsadlarni o‘z ichiga olgan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilingan. Xususan, ushbu strategiyada raqamli hukumatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va maqsadlari alohida belgilab o‘tilgan.

So‘nggi yillarda Elektron ishtirok indeksi turli jihatlardan olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Uning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda kamchiliklari ham aytib o‘tilgan.

BMT ning rasmiy ta‘rifiga ko‘ra, mamlakatning EPI ko‘rsatkichi hukumat tomonidan joriy etilgan elektron ishtirok mexanizmlarining boshqa barcha davlatlarga nisbatan darajasini aks ettiradi. Ushbu o‘lchovdan ko‘zlangan maqsad biron-bir aniq amaliyotni majburiy joriy etish emas, balki turli mamlakatlar umumiy manfaatlar yo‘lida hukumat va xalq o‘rtasidagi, shuningdek, fuqarolarning o‘zaro muloqotini rag‘batlantirishda onlayn vositalardan qanday foydalanayotgani haqida tahliliy ma‘lumot berishdan iborat [1].

M.Sirajul Islam “Barqaror elektron ishtirokni joriy etish modeli sari” nomli maqolasida, e-ishtirokni ishtirok etishning yangi vositasi hamda elektron boshqaruv va elektron demokratiyaning bir qismi sifatida e‘tirof etadi. Unga ko‘ra, e-ishtirokda AKTni qo‘llash maqsadlaridan biri – siyosiy jarayonlarda kengroq ishtirok etishni, real vaqtdagi sifatli va ochiq ma‘lumotlarni, shaffof va hisobdor boshqaruvni ta‘minlash uchun turli xil texnik va kommunikativ mahorat usullari orqali kengroq fuqarolarni rag‘batlantirish va jalb qilish hisoblanadi [2].

EPI indeksi dunyo mamlakatlaridagi tashabbuslarni baholashda eng ko‘p havola qilinadigan ko‘rsatkich bo‘lsa-da, u tanqidlarga ham uchragan. Xususan, A.Pirannejad o‘z tadqiqotida indeksda elektron ishtirokning “pastdan yuqoriga” (jamiyat tomonidan boshqariladigan tashabbuslar) tamoyili yetishmasligini ta‘kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, elektron ishtirok demokratlashtirishni rag‘batlantiruvchi jihatlarni o‘lchashni maqsad qilsa, hukumat va jamiyat tomonidan boshqariladigan tashabbuslarning ikkalasi ham hisobga olinishi kerak. Faqat hukumat tomonidan ko‘rsatiladigan “taklif” tomoniga e‘tibor qaratish va fuqarolik jamiyati tashabbuslarini e‘tiborsiz qoldirish, nodemokratik davlatlarning reytingda demokratik davlatlardan yuqori o‘rinlarni egallashiga sabab bo‘ladi [3].

Ushbu tadqiqot ishida kuzatish, mavjud ma‘lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va umumlashtirish usullari qo‘llandi. Shuningdek, EPI ga oid davlat strategiyalari, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tashkilotlar materiallari o‘rganilib, amaldagi iqtisodiy vaziyat bilan taqqoslab baholandi.

Elektron ishtirok indeksi (EPI) Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a‘zo bo‘lgan 193 ta davlatning onlayn faoliyatini qamrab oluvchi keng ko‘lamli elektron hukumat tadqiqotining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ya‘ni, Elektron ishtirok indeksi (EPI) elektron hukumat rivojlanish indeksi (EGDI) tarkibiga kiruvchi Online Service Index (OSI)ning sub-indekslaridan biri hisoblanadi.

Elektron hukumat rivojlanish indeksi (EGDI) uchta asosiy komponentdan tashkil topgan bo‘lib, ular quyidagilar: Online Service Index (OSI), Telecommunication

Infrastructure Index (TII) va Human Capital Index (HCI). O‘z navbatida, Online Service Index (OSI) beshta sub-indeksdan iborat bo‘lib, ular institutsional asoslar, xizmat ko‘rsatish darajasi, kontent taqdim etish, texnologiyalar darajasi hamda elektron ishtirok ko‘rsatkichlarini qamrab oladi.

EGDI ning yakuniy qiymati 0 dan 1 gacha baholanadi va davlatlar quyidagi guruhlariga ajratiladi [7]:

1-jadval

Elektron hukumat rivojlanish indeksi bo‘yicha guruhlariga tasniflash³³⁸

T/r	Guruhlar	Qiymatlar	Kvartillar
1.	Very high EGDI (VHEGDI)	0.75-1.00	VH, V3, V2, V1
2.	High EGDI (HEGDI)	0.50-0.7499	HV, H3, H2, H1
3.	Middle EGDI (MEGDI)	0.25-0.4999	MH, M3, M2, M1
4.	Low EGDI (LEGDI)	0.00-0.2499	LM, L3, L2, L1

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va Ijtimoiy masalalar departamenti (UN DESA) ushbu hisobotni har ikki yilda bir marta nashr etadi [5]. Hisobot dunyo mamlakatlari hukumatlarida elektron hukumatning rivojlanish holatini baholaydi. Mazkur tadqiqotda EPI milliy hukumat portallarini, ularda fuqarolarning jalb qilinganligi, xizmatlar ko‘rsatilishi va qaror qabul qilish jarayonlarida jamoatchilik ishtiroki uchun mavjud imkoniyatlar darajasiga ko‘ra baholaydi [3]. 2003-yildan buyon EPI to‘qqiz marta yangilangan bo‘lib, u har bir a‘zo davlatdagi jamoatchilik ishtiroki holatini uch darajada o‘lchaydi:

– Elektron axborot (E-information): fuqarolarga davlatga oid ma’lumotlarni taqdim etish hamda ularning so‘rov bo‘yicha yoki so‘rovsiz axborot olish imkoniyatini ta’minlash orqali ishtirok etishga sharoit yaratish;

– Elektron maslahat (E-consultation): fuqarolarni davlat siyosati va xizmatlarini muhokama qilish hamda ularga takliflar kiritish jarayoniga jalb qilish;

– Elektron qaror qabul qilish (E-decision-making): Siyosiy variantlarni birgalikda loyihalash, xizmat ko‘rsatish tarkibiy qismlari va ularni yetkazib berish usullarini birgalikda ishlab chiqish orqali fuqarolarning vakolatlarini kengaytirish [1].

Shu jumladan, so‘nggi yillarda O‘zbekiston ham dunyo miqyosida o‘z o‘rnini yaxshilashni maqsad qilib, elektron hukumat doirasida qator o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Hozirgi kunda O‘zbekiston BMT baholashi bo‘yicha VHEGDI guruhining V1 kvartiliga mansub hisoblanadi [4].

2-jadval

2016-2024-yillar kesimida O‘zbekistonning EPI ko‘rsatkichlari³³⁹

Yil	Qiymat	O‘rin
2016	0.6780	47
2018	0.7584	59
2020	0.8095	46
2022	0.6136	55
2024	0.6986	53

³³⁸ BMT ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi (<https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/About/Overview/-E-Government-Development-Index>)

³³⁹ BMT statistik ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi (<https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data-Center>)

Mazkur indeks qiymatlarida tebranuvchan o'sish tendensiyasi kuzatiladi. O'zbekiston eng yuqori natijaga 2020-yilda erishgan bo'lib, 0.8095 ni tashkil etgan bo'lib, dunyo bo'yicha 46-o'rinni egallagan. Ammo 2022-yildagi keskin pasayish sababi sifatida BMT tomonidan mamlakatlarga qo'yilgan talablarning yanada qat'iylashgani va raqamli xizmatlarning nafaqat mavjudligini, balki ularning sifati va foydalanuvchilar uchun qulayligiga ko'proq e'tibor qaratganligini ko'rsatish mumkin. Tadqiqotning 2020-yilgi nashrida OSI ko'rsatkichi 148 ta savol asosida hisoblab chiqilgan bo'lsa, 2022-yilgi nashri uchun savollar soni 180 tani tashkil etgan [8].

O'zbekistonda elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibini takomillashtirish maqsadida 2017-yil 15-sentabrda Qonun qabul qilingan [10]. Uning amaliy natijasi sifatida O'zbekiston Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) tashkil etilganligi, u 824 ta xizmatni amalga oshirayotganligini ko'rsatish mumkin [9].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda ochiq ma'lumotlarning oshkoralik va sifati darajasini, ularni fuqarolarga va jahon hamjamiyatiga yetkazish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portali faoliyati yo'lga qo'yilgan [11]. Joriy vaqtda portalda 10 mingdan ortiq ochiq ma'lumotlar to'plamlari mavjud [12].

2018-yil 1-fevraldan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi axborot tizimining yangi talqini ishga tushirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasining axborot tizimi jismoniy va yuridik shaxslarga o'z murojaatlarini Internet tarmog'idan pm.gov.uz manzilidagi veb-sayti orqali davlat organlari rahbarlariga yuborish imkoniyatini beradi [13]. Hozirgi kunga qadar 11,4 mln. murojaat ko'rib chiqilgan [14].

EPI tizimining samaradorligi faqat platformalar mavjudligi bilan emas, balki fuqarolarning real ishtiroki va ularning qaror qabul jarayoniga ta'siri bilan baholanadi. Jumladan, 2026-yil 1-yanvardan boshlab yuritib kelinayotgan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali statistikasida foydalanuvchilar soni 14 mln. kishini tashkil etgan [9]. Bu esa 16 yoshdan katta aholining 53,6% i portal xizmatlaridan foydalanishini anglatadi [15]. Bundan fuqarolarning faol ishtirok darajasi yetarli emasligi ko'rinadi. Yana bir jihat shundaki, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lganda, fuqarolar elektron platformalarda faol ishtirok etishga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Texnologik infratuzilmaning rivojlanish darajasi hududlarda farqli ekanligi elektron ishtirokka ta'sir etuvchi omillardan yana biridir. Jumladan, so'nggi yillarda internet qamrovi kengaygan bo'lsa-da, undan foydalanish imkoniyatlari hududlar kesimida nomutanosibdir. Ayniqsa, qishloq joylarda internet xizmatlarining past sifati fuqarolarning elektron platformalardan foydalanish imkoniyatlarini pasaytiradi. Bu omillar, o'z navbatida, EPI ko'rsatkichining barqaror o'sishiga to'sqinlik qiladi.

Elektron ishtirok zamonaviy boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Elektron ishtirokning joriy etilishi davlatning barcha foydalanuvchilar: fuqarolar, ijro etuvchi davlat hokimiyati organlari, davlat tashkilotlari, davlat xizmatchilari va biznes vakillari bilan munosabatlarida ijobiy o'zgarishlarga olib keladi [16]. O'zbekiston ham bu yo'nalishda muayyan yutuqlarga

erishgan bo'lsa-da, EPI ko'rsatkichlarining barqaror emasligi tizimni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bu jarayonda elektron platformalarning mavjudligi bilan bir qatorda, ulardan samarali foydalanish darajasi va fuqarolarning real ishtiroki bunda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston sharoitida elektron ishtirok faoliyat ko'rsatishi uchun yetarli huquqiy baza shakllangan. Biroq, elektron ishtirokni rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etib, texnologik, institutsional va ijtimoiy omillarni uyg'unlashtirish orqali amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/About/Overview/E-Participation-Index>
2. M.Sirajul Islam. Towards a sustainable e-Participation implementation model <https://www.researchgate.net/profile/M-Sirajul-Islam/publication/238704195>
3. Pirannejad A., Janssen M., Rezaei J. Towards a balanced E-Participation Index: Integrating government and society perspectives //Government Information Quarterly. – 2019. – T. 36. – №. 4. – C. 101404.
4. <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data-Center>
5. https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-holds-87th-place-in-e-government-rating/?utm_source
6. Yury Kabanov. Refining the UN E-participation Index: Introducing the deliberative assessment using the Varieties of Democracy data <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0740624X21000927#:~:text=Highlights,measurement%20of%20e%2Dparticipation%20success>.
7. <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/About/Overview/-E-Government-Development-Index>
8. UN E-Government Survey 2022 <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Reports/UN-E-Government-Survey-2022>
9. <https://my.gov.uz/uz/statistics>
10. <https://lex.uz/docs/-3353186>
11. <https://lex.uz/uz/docs/-5182703>
12. https://camgdp.org/sources/sources/data_egov_uz/?utm_source
13. <https://stat.uz/uz/murojaatlar/virtual-qabulxona>
14. <https://pm.gov.uz/oz#/>
15. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
16. Zainalov N.R. Current State of the E-Government Development Index in Uzbekistan. (2025). Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology (2995-486X), 3(1), 88-94.